

Assalomu alaykum,

Janob Yang Tae Kim,

Hurmatli tadbir qatnashchilari, xonimlar va janoblar,

Barchangizni ushbu tadbirda ko'rib turganimdan mammunman.

Ma'lumki, iqlim o'zgarishinining salbiy ta'sirlarini qisqartirish, atrof-muhitga issiqxona gazlarini chiqishida transport sohasining ulushini kamaytirishda **O'zbekiston** tomonidan bir qator choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "**Iqlimning o'zgarishi to'g'risida**" **Hadli Konvensiyasi** (*Рамочная Конвенция*) ishtirokchisi hisoblanishini, shuningdek, **O'zbekiston** tomonidan **Parij** bitimi **2017**-yilda imzolanganligi hamda **2018**-yilda ratifikatsiya qilinganligini yaxshi bilasiz.

Bugungi kunda, transport sohasida davlat siyosatini olib borishda ekologiya va atrof-muhit masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019**-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan "**2019 – 2030**-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "**Yashil**" **iqtisodiyotga o'tish strategiyasi**" tasdiqlanib, unda Transport sohasidagi asosiy maqsadlar belgilab berilgan. Xususan:

shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejali va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq "yashil" transportni rivojlantirish;

avtotransport parkini yangilashda davom etish, eski avtomobilarni utilizatsiya qilish va yangi, yanada ekologik avtomobilarni sotib olishni rag'batlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish;

jamoat transportining samarali tizimlarini yaratish va takomillashtirish yashil iqtisodiyotga o'tishda asosiy yo'nalishlar sifatida belgilab berilganligi shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasi** Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-111-son qarori bilan "**Toshkent shahar jamoat transporti tizimini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi**" qabul qilindi.

Mazkur Konsepsiyaning asosiy maqsadi aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini kamida ikki barobarga oshirish, yo'lovchilarga qulay va xavfsiz harakatlanish muhitini yaratish hamda

transportning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish orqali shaharda ekologik holatni yaxshilashdan iborat.

Xususan, konsepsiyada **2025-yilgacha** Toshkent shahrida jamoat transportini qulay va ekologik toza harakat tarkibi bilan yangilash yo'li bilan atrof-muhitga salbiy ta'sirini **35 foizga** kamaytirish belgilangan.

Ko'rileyotgan choralarning amaliy ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, 2022-yilda Toshkent shahriga **20 dona** katta sig'imli elektrobuslar olib kelinib, muntazam yo'nalishlarga joylashtirildi.

Elektrobuslarning **10 oylik** ekspluatatsiyasi natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi o'tgan yil ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda **56,8 tonnaga** qisqardi.

Bugungi kunda jamoat transport parkini ekologik toza transport bilan kengaytirish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'iga muvofiq, keyingi oylarda Toshkent shahriga jami **1000 dona**, shundan **300 ta** elektrobus hamda **700 ta siqilgan tabiiy gazda** ishlaydigan avtobuslar olib kelinmoqda.

Mamlakatimizda aholining turmush tarzi oshishi munosabati bilan shaxsiy avtomobillar soni yiliga o'rtacha **300 mingtaga** ko'payib bormoqda.

Avtomobil sonini keskin oshishi, shaharlarda havoni ifloslanishiga va issiqxona gazlarni oshishiga olib kelmoqda. **O'zbekistonda** havo ifloslanishida avtomobil transporti ulushi **60 foizni** tashkil etib, rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichidan **3 barobar** ko'p bo'lmoqda.

Shu sababli, sifatli, xavfsiz va barqaror jamoat transporti tizimini yaratish orqali shaharlarda xususiy avtotransport sonini keskin oshib ketishini jilovlash hamda aholini jamoat transportiga bo'lgan ishonchini orttirish ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Shu bois bugungi kunda jamoat transportini rivojlantirish bo'yicha kompleks ishlar amalga oshirilmoqda. Misol sifatida, jamoat transportini moliyalashtirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, sohani raqamlashtirish orqali samarali nazorat tizimlarini yaratish, yo'nalishlar tarmog'ini optimallashtirish bo'yicha qilinayotgan ishlarni aytishimiz mumkin.

Bundan tashqari, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi Vakolatxonasi hamkorligida "**Toshkent – Kam uglerodli avtotransportga investitsiyalar jalb etishni jadallashtirish**" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Loyiha doirasida, Toshkent shahrida yashil transport yo'lagi pilot loyihasini amalga oshirish, unda elektrobuslarning qatnovini yo'lga qo'yish, buning natijasida ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda erishilgan natijalar asosida **O'zbekistonda elektrotransportni rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi** va **strategiyalarni** ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Xalqaro transport forumi va Transport vazirligi hamkorligida amalga oshirilgan "**Toshkent shahri yo'lovchi transportini dekarbonizatsiya qilish yo'nalishlari**" loyihasi yuqorida amalga oshirilayotgan ishlarga hamda sanab o'tilgan qarorlarda belgilangan maqsadlarga to'liq mutanosibdir.

Xalqaro transport forumi tomonidan chuqur bilim va eng ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar biz uchun katta ahamiyat kasb etadi hamda mamlakatimiz shaharlarida jamoat transportini kompleks rivojlantirish va qarorlar qabul qilishda qo'llanma sifatida foydalaniladi.

Jamoat transporti siyosatini samarali olib borishda ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda eng yangi uslubiyotlardan foydalanish imkonini taqdim etilganligi uchun Xalqaro transport forumiga chuqur minnatdorchilikimni bildiraman.

Yana bir bor mehmonlarni chin qalbimdan qutlayman va bugungi tadbirimizga muvaffaqiyat tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Toshkent shahri, "Hyatt Regency" mehmonxonasi,

2023-yil 14-fevral.